

QO‘QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARLARI
(2025-yil 2-son)



FILOLOGIYA
PHILOLOGY

UDK: 81.373

“EL” SO‘ZINING LUG‘AT MAQOLASI HAQIDA MULOHAZALAR

Nodira Sharafiddinova

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

FarDU akademik litsey o‘qituvchisi,

Nodish.28.08@gmail.com

Nilufar Sharafutdinova

FarDU o‘zbek tili va adabiyoti

kafedrasida o‘qituvchisi

nilusharafutdinova 1973@gmail.com

ANNOTATSIYA: Maqolada “el” so‘zining semantik strukturasi haqida fikr-mulohazalar bildiriladi. Maqola oxirida bu so‘zning izohli lug‘atlarda berilishi zarur bo‘lgan lug‘aviy ma’nolari lug‘at maqolasi shaklida tavsiya etiladi. Har bir lug‘aviy ma’no uchun turli badiiy manbalardan olingan tasdiqlovchi misollar beriladi.

KALIT SO‘ZLAR: lug‘at, atama, lug‘at maqolasi, leksema, lotin yozuvi;

КОММЕНТАРИИ К СЛОВАРНОЙ СТАТЬЕ СЛОВА "ЭЛ"

АННОТАЦИЯ: В статье комментируется семантическая структура слова “эль”. В конце статьи в виде словарной статьи рекомендуются словарные значения этого слова, которые необходимо давать в толковых словарях. К каждому лексическому значению приведены подтверждающие примеры из различных художественных источников.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: словарь, термин, словарная статья, лексема, латиница;

COMMENTS ON THE DICTIONARY ARTICLE OF THE WORD "EL"

ANNONTATION: The article comments on the semantic structure of the word "el". At the end of the article, the dictionary meanings of this word, which need to be given in explanatory dictionaries, are recommended in the form of a dictionary article. For each lexical meaning, corroborating examples from various artistic sources are given

KEY WORDS: dictionary, term, dictionary article, lexeme, Latin script;

Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosidagi olti jilddan iborat “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” 2023 yili chop etildi. Lug‘atda “el” so‘zining hind raqamlari bilan ajratilgan holda quyidagi ma’nolari

izohlanadi:”1. Bir joyning odamlari, aholisi, xalqi; umuman, ko‘pchilik odam, xaloyiq, hamma... 2. Bir yurtga, qabilaga mansub odamlar; millat, xalq... 3. Yurt, diyor, mamlakat...

El bo‘lmoq kimsa bilan o‘z kishisidek yaqin, do‘st bo‘lmoq; chiqishmoq... “ [7, 24]

Lug‘atning 2008 yili chop etilgan besh jildli nashrida ham keltirilgan izohdan uzoq bo‘lmagan tarzda, ya‘ni “bir joyning odamlari, aholisi, halqi... ko‘pchilik odam, xaloyiq, hamma, bir yurtga, qabilaga mansub odamlar, millat, xalq, yurt, diyor, mamlakat” sifatida tavsiflanib, “el bo‘lmoq kimsa bilan o‘z kishisidek yaqin, do‘st bo‘lmoq, chiqishmoq” ma‘nolari qayd etiladi va tasdiqlovchi misollar beriladi [6, 29] 1981 yildagi nashrida ham shu tarzda izohlanadi, lekin tasdiqlovchi misollar ko‘proq bo‘lib, “el qatori”, “el yotar payt”, “eldan burun”, “el qilmoq” birikmalari izohlariga ham o‘rin berilgan. Biz bu so‘zning ma‘nolari haqida o‘z fikr-mulohazalarimizni bildirgan edik* Ma‘lumki, lug‘at maqolasini tuzish nihoyatda qiyin va murakkab ishdir. Shu jihatini hisobga olgan holda, fikr-mulohazalar bildirilgan o‘sha maqolalardan (5,442) ayrim o‘rinlarini keltirishni lozim topdik. Bu bilan “El” so‘zi uchun tuzilgan lug‘at maqolasi yana ham to‘ldiriladi deb hisoblaymiz.

L.N.Gumilev ham o‘zining “Qadimgi turklar” kitobida bu so‘zga alohida e‘ti-bor qaratadi. U turklar o‘z saltanatini el deb atashganini, lekin bu so‘zning ma‘nosi bo‘yicha yagona bir fikr yo‘qligini, S.Ye.Malov uni “qabila ittifoqi” deb tarjima qilib, ayni paytda “davlat, xalq” ma‘nolari borligini ham aytishini, Radlov, Melioranskiy, Bartold, Tomsen va Xirtlar ham shunday fikr bildirishlarini ko‘rsatib o‘tadi. Bernshtam bu atamani “el – urug‘chilik tuzumidagi tashkiliy jipslik

an‘anasini o‘zlashtirib olgan turli qabilalar asilzodalarining birlashmasi, zodagonlar tuzumidir. El–davlat tashkiliy tomonining ifodasi...” sifatida tushunishini noto‘g‘ri deb belgilaydi [2,112]

L.N.Gumilyovning o‘zi “el”ni “...kuch bilan boshqa qabilalarni bo‘ysun-dirishni ifodalaydi. Shuning uchun ham “EL” atamasining eng muvofiq muqobili lotin tilidagi “imperium” yoki ruscha “derjava” bo‘ladi” [2,113] deb biladi. Xullas, “el” so‘zi ifodalaydigan “tushunchadagi eng muxim nuqta o‘rda bilan birga yashashga majbur etil-gan, bo‘ysundirilgan qabilaning mavjudligi va hukmron qabilaning ham bo‘lishidir” (2,71) deb hisoblaydi. Shunday qilib, “el” izohli lug‘atlarda odamlar, aholi, xalq, yurt, diyor, mamlakat sifatida, L.N.Gumilev va u o‘z kitobida ko‘rsatib o‘tgan olimlar tomonidan qabila ittifoqi, davlat, xalq, asilzodalar birlashmasi, zodagonlar tuzumi, imperiya, derjava tarzida izohlanadi.

Hozirgi o‘zbek tilida qo‘llanishi jihatidan kelib chiqilsa, haqiqatan ham, bu so‘z asosan lug‘atda ko‘rsatilgan ma‘nolarda qo‘llanadi.

O‘zbek xalq og‘zaki ijodi namunalarida, xususan, xalq dostonlarida ham “el” so‘zi turli ma‘nolarda faol ishlatiladi. Ana shunday ma‘nolardan biri “urug‘”, “urug‘lar birlashmasi” ma‘nosidir. “Alpomish” dostoni shunday boshlanadi: “Qadim o‘tgan zamonda, o‘n olti urug‘ Qo‘ng‘irot elida Dobonbiy degan o‘tdi” [M: 3,21] Jumladagi “Qo‘ng‘irot eli” ham mamlakat, ham o‘n olti urug‘ birlashmasidan iborat bo‘lgan tuzilma – uyushmani ifodalaydi. Bu uyushma, o‘z boylariga ega bo‘lganidek, o‘z shohlariga ham ega: “Bizlar o‘n olti urug‘ Qo‘ng‘irotning boyi ham, shohi ham bo‘lsak...” [M: 3,21]

“El” ayni paytda “urug‘”ni ham anglatadi. To‘yda ishtirok etgan – “hamma eldan kelgan odamlar ham ketdi” [M: 3, 22-23] – jumlasida “hamma el” hamma urug‘ – o‘n olti urug‘dan kelgan odamlarni

anglatadi. “El”ning “urug‘” ma’nosi Go‘ro‘g‘li turkum dostonlarida ham kuzatiladi. “Dono kishi o‘z elidan adashmas”, ya’ni “o‘z urug‘idan adashmaydi, o‘z urug‘ini biladi” ma’nosidadir.

Go‘ro‘g‘li sulton o‘tgan “Turkman eli” imperiya – derjava tipidagi davlat bo‘lib, o‘zida geografik jihatdan ko‘pgina hududlarni, etnografik jihatdan ko‘plab urug‘ va qabilalarni birlashtirgan. Go‘ro‘g‘lining oliy hokimitiga “boshqa millatlardan ham xizmatini qilmoq uchun odamlar kelgan... Qanxor (Qandaxor)dan – To‘lab, Mang‘itdan – Bo‘lak, Saroydan – Salingir, Jaloyirdan – Yortiboy oqsoqol...” [M: 1,10-11].

Doston mazmunidan kelib chiqilsa, xizmat qiluvchilar zo‘rlab olib kelinmagan. Ular o‘z istaklari bo‘yicha kelganlar. Shu asosga ko‘ra aytish mumkinki, “el” L.N.Gumilev ta’kidlaganidek, faqat zo‘rluk bilan, “... kuch bilan boshqa qabilalarni bo‘ysundirish” asosidagi imperiya bo‘lmay, S.Ye.Malov tomonidan hamda “Древнетюрский словарь”da izohlanganidek, “qabila ittifoqi”, “qabila uyushmasi”, “ma’muriy birlik” tushunchalarini ifodalaydi [4,379; 3,168-169].

“El” so‘zi “Yusuf va Ahmad” dostonida ham davlat, hokimiyat, saltanat, podshohlik o‘rdasi, qarorgohi ma’nolarida qo‘llanadi.

Dostonning qahramonlari Yusuf va Ahmad podshoh tog‘asi Bo‘zo‘g‘lonxon tarbiyasida bo‘ladi. Qahramonlar besh yoshga yetganda, ularni o‘qita boshlagan podsho lashkarboshisi Ashirbek sardor keyin o‘z “xizmatini tashlab, Yusuf va Ahmadga xizmatkor bo‘lib” ketadi. Oqibatda “Yusuf bilan Ahmadbek bachaning qilgan ishi podshodan ilgari bo‘lib ketadi. Bir xil janjal-junjalni bularga arz qilib, shularning tilidan aytib ketaveradi. El hammasi shularga ovnab (og‘ib) ketadi [M: 7,7].

Parchada keltirilgan “el” so‘zi shu o‘rinda “hokimiyat” tushunchasini anglatadi. Keyingi voqealar so‘zdagi bu ma’noni tasdiqlaydi.

El og‘ib ketgach, podshoning vazirlari bu holga chiday olmay, “Ey taqsir podshohim. Sizni Ahmad bilan Yusufbek o‘ldirib, o‘ringizga podsho bo‘laman, deb yuribdi” (7,8) degan xabar yetkazadilar. Yusuf, Ahmad va Ashirbeklar boshqa yurtga ko‘chib ketishadi. Shunda Bo‘zo‘g‘lon podshoning odamlari “xo‘p bo‘ldi, ular ketsa ketsin, yurtning kattaligini o‘zimiz qilamiz” [M: 7,15] deyishadi.

“Kattaligini o‘zimiz qilamiz” jumlasini “o‘zimiz boshqaramiz, hokimiyat bizniki bo‘ladi” degan mazmunni ifodalaydi.

Ko‘rinadiki, “el” so‘zida davlat, hokimiyat ma’nolari ifodalangan.

“Alpomish” dostonida Boysari o‘zi yurt ma’nosidagi Qo‘ng‘irot elida yashaydi. Biroq uning “Qo‘ng‘irot eldan molga zakot kelibdi” [M: 3, 24] degan so‘zlarida “el” o‘rdani anglatadi.

“Yusuf va Ahmad” dostonida Eralixon podsho alohida nomini ta’kidlab chaqirtirgan Oyxon podsho “jami qorako‘zlarga qarab bir so‘z” aytganda, o‘z so‘zini “Eralixon podshodan so‘rab” [M: 7,18], “Eralixon, shohim, eshiting...” [M:7,18] deb boshlaydi. Bundan ham ko‘rinadiki, Eralixon – imperator, Oyxon podshoning Yusufbek qoshiga ketish oldidan Eralixonga “Habar olib turing... ellardan” deb aytgan murojaatida katta elni tashkil etuvchi, ya’ni imperiyani tashkil etuvchi bir necha kichik ellar va shu orqali katta saltanat nazarda tutiladi.

Oyxon podshoning gaplari “Eldan kelgan el og‘alari... Elbegilar”, ya’ni katta imperiyadan kelgan kichik hokimlar tomonidan ma’qullanadi: “Eldan kelgan amaldorlarning hammasi: - Durust, (M: 7,19) deydi.

Bundan ko‘rinadiki, Eralixon katta podsho – “Ulug‘ shoh” [M: 7,33], imperator, Sheralixon, Oyxonlar hududiy podsholar.

Yusufbekning “ovozamiz elga manzur bo‘libdi... ovozamiz yurtga ma’lum bo‘libdi” [M: 7, 24] degan so‘zlarida ham “manzur bo‘libdi” elga – hokimiyatga, “ma’lum bo‘libdi” yurtga – mamlakatga nisbat beriladi.

Isfixondan ko‘chgan Yusuf, Ahmad, Ashirbeklar geografik hudud bo‘yicha Urganchda joylashgan. Urganch shohi Eralixon podsho o‘z huzuriga chorlaganda, Yusufbek o‘z ayonlaridan maslahat so‘rab aytgan so‘zlarida “chaqiribdi podsho Urganch eliga... Podsho kelsin depti Urganch eliga” [M: 7, 34] deb murojaat qiladi. Bu o‘rinda “el” podsho o‘rdasini anglatadi.

Eralixon podsholikni Yusufbekka topshirar ekan, “chiroqqinam, berdim Urganch yurtimni, eling qulluq bo‘lsin, Yusuf farzandim”, deydi.

Keltirilagan misoldagi “el” davlat ma’nosidadir. Xuddi shu so‘z o‘rnida keyin “arkon davlat”, “tilla muhr” so‘zlari almashinib keladi – “arkon davlat qulluq bo‘lsin, farzandim”, “tilla muhr qulluq bo‘lsin, farzandim” [M:7, 37].

Yozma adabiyot namunalarida, xususan, Yusuf xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” dostonida ham “el”, xalq, yurt ma’nolaridan tashqari, davlat, hokimiyat ma’nolarida qo‘llangan:

Ikki narsa el uchun mustahkam bog‘ (ich)dir,

Biri – xushyorlik, biri – siyosat, (bular) elning asosidir.

Siyosat bilan beg el tuzadi va nizom o‘rnatadi.

Elni idora qilish hamda uning mustahkam moyasi

Uning asli, tub ildizi ikki narsadan iboratdir.

Biri – xalqqa adolat baxsh etish,

Ikkinchisi – lashkarga kumush in’om qilish [M: 8,339,355]

Misralar mazmunidan anglashiladiki, elning – davlatning asosi xushyorlik va siyosatdir, siyosat bilan el – hokimiyat tuziladi, davlatni idora qilish, ya’ni boshqarish ildizi xalqqa adolat baxsh etish, lashkarning – armiyaning moddiy ta’minotini mustahkamlashdir. Yuqorida zikr etilgan ma’nolardan kelib chiqilsa va ularga bog‘lansa, “elchi” so‘zining ma’muriy lavozim ma’nosi ham yanada ravshanlashadi va yengil tushuniladi, xatto shu lavozim egasi bo‘lgan shaxsni qiyofalantiradi – elchi davlat, hukumat kishisi, u davlat, hukumat nomidan ish ko‘ruvchi arbob.

Alisher Navoiy asarlari tili uchun tuzilgan izohli lug‘atda “el” ikki leksema (omonim) sifatida rim raqamlari orqali farqlanib, ikki mustaqil lug‘at maqolasining bosh so‘zi tarzida tavsiflanadi. Birinchi maqolada “qo‘l” ma’nosi qayd etilib, tarkibida “gulruh elidan ichsa mul” hamda “elidin mahvashlar” birikmalari bo‘lgan ikki bayt tasdiqlovchi misol tariqasida beriladi. Rim raqami bilan ajratilgan ikkinchi leksemaning o‘z ichida yana ikki ma’nosi hind raqamlari orqali farqlab qayd etiladi: “El II-1. xalq, odamlar...” Ikkinchi ma’nosi askar, lashkar sifatida izohlanib, “Va podshoh necha qatla qolin el yiborib daf’ qila olmadi” [1, 562] tasdiqlovchi misoli beriladi.

Demak, “el” Navoiy davrida ikki mustaqil leksemadan iborat bo‘lib, uning boshqa manbalarda qo‘llanmagan birinchi leksema bo‘yicha “qo‘l”, ikkinchi leksema bo‘yicha askar, lashkar ma’nolari iste’molda bo‘lgan. Lekin zikr etilgan lug‘atda Alisher Navoiyning “Lisonut-tayr” asaridagi “Iskandarning elchilikka borg‘on hikoyati”da “el” davlat devoni, mahkamasi va devon arboblari ma’nosi bilan qo‘llangani haqida izoh berilmagan.

– Bir kun Iskandar bu oyin ayladi,
Elchilikka o‘zni ta‘yin ayladi.
Dedi elga budur Iskandar so‘zi,
Turfa bukim erdi Iskandar o‘zi.

Elchilardek so‘z bayon aylar edi,
O‘zi o‘z hukmin ayon aylar edi

El ne bilsunlarki Iskandardur ul,
Yo‘qki qosid hokimi kishvardur ul [M: 2,92-93]

Keltirilgan parchadagi “dedi elga”, “el ne bilsunlarki” birikmalari tarkibidagi “el” so‘zi orqali davlat arboblari ifodalangan – Iskandar elchi qiyofasida “o‘z hukmin” davlat arboblari ayon aylaydi, el, ya’ni davlat arboblari esa bu elchi Iskandarning o‘zi ekanligini bilmaydi.

“Boburnoma” ning to‘qqiz yuz oltinchi (1500-1501) yil voqealari bayonida “el” so‘zining qo‘llanishi ko‘rsatadiki, bu so‘z “lashkar”, “qo‘shin” ma’nolarini ifodalaydi. “Bizga ko‘makka kelgan mo‘g‘ul lashkarlarining urushga toqatlari yo‘q edi. Urushmoqni qo‘yib, o‘zimizning elniyoq talab, otdan tushirishga kirishdilar... Ilgaridan va keyindan bostirib kelindi. Bizning elni sarosimaga soldilar.” [M: 5,81]

El so‘zi har ikki qo‘llanishda ham “lashkar”, “qo‘shin” ma’nolarida kelgan.

Hozirgi o‘zbek adabiy tilida bu so‘z “askar”, “lashkar”, “qo‘shin” ma’nolarida qo‘llanmaydi va shuning uchun ham lug‘atlarda bu jihatdan izohlanmaydi, lekin qirg‘iz yozuvchisi T. Qosimbekovning “Singan qilich” romanida shunday epizod tasviri bor. Yol va dumlari qizil qonga bo‘yalgan oq ot mingan jarchilar ikki suv orasidagi qipchoq urug‘iga xabar beradi. Shunda “el qo‘zg‘alib, har joy – har – joydan oq, ko‘k tug‘ ko‘targan qo‘shinlar kela” boshlaydi. El qo‘zg‘oloni butun qipchoq urug‘ining harakatga kelishidir, ular orasidan tug‘ ko‘tarib kelganlari qo‘shin, ya’ni askarlardir. Mana shu askarlar keyingi jummalarda “el” so‘zi bilan ifodalanadi. “Tog‘u toshlar karnay sadolaridan yangrab, el harakatga tushdi”. Bu harakatga tushgan el keyingi jummalarda “qo‘shin” va yana “el” so‘zlari orqali konkretlashadi – askarlar, lashkar ma’nolarini ifodalaydi. “Qo‘shin ko‘k tug‘ ostiga yaqinlashdi”; “Yusuf o‘rtadagi tor yo‘ldan savlat to‘kib o‘tib borarkan, elning shivir – shivir gaplarin eshitib, o‘ziga taskin berdi” [M: 9,14;15].

Bu o‘rindagi “el” qo‘shin, Yusuf qo‘shin orasidagi tor yo‘ldan o‘tib boradi.

Xalq tilida “el” ayrim olingan qishloq yoki qo‘rg‘onni ham ifodalaydi. Lekin izohli lug‘atlarda, odatda, bu so‘zning qishloq ma’nosi berilmaydi. Parda Tursunning “O‘qituvchi” romanida ayni shu

ma’noda qo‘llangan: “... Soy bo‘ylab baland tog‘ yonbag‘irlariga tizilishgan qing‘ir-qiyshiq uyli bir qishloq” ahli taqdiri tasvirida shunday bir jumla bor: “Bir kuni “askar chiqadi” vahimasida butun qishloq chuvillab toqqa chiqib ketdi. Kun bo‘yi tog‘larda izg‘ib yurib, qorong‘u tushganda elga qaytdi” [M:6,13] Jumlaning “elga qaytdi” birikmasidagi “el”, “qing‘ir-qiyshiq uyli” qishloqni ifodalab kelgan.

Asqad Muxtorning “Tundaliklar”ida shunday jumlar bor: “O‘n olti asr oldin toshga o‘yib yozilgan O‘rxun bitiklarini o‘qing: “ Otim Eltug‘an Tutuk. Ban Tangri elimga elchi ertim. Olti bog‘ budunga beg ertim... Tangridagi kunga, yerdagi elimga bo‘kmadim, ayrildim...”

Qanday sodda, tiniq jumlar! Faqat hozirgi tilda bir- ikkitagina kichik izohga muhtoj: “Tangri el “ – davlat, imperiya; “Budun” – xalq; “Bo‘kmadim – to‘ymadim” [M:4, 720].

Shunday qilib, “el” so‘zining “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da qayd etilgan ma’nolari xususida quyidagilarni aytish o‘rinlidir: 1) haqiqatan ham, “el” aholi, xalq, xaloyiq so‘zlariga sinonim bo‘ladi, biroq “odamlar” va “millat” so‘zlariga sinonim bo‘la olmaydi – “el” jamlik oti, shu ma’noda u “odamlar”ni emas, “odamlar to‘pi”ni anglatadi, “odamlar” esa ko‘plikdagi ot; “millat” murakkab ijtimoiy umumiylikni ifodalovchi tushuncha bo‘lib, uning tashkil topish va shakllanish tarixi “el”ga nisbatan ancha keyingi davrlarga to‘g‘ri keladi va, shuning uchun ham, keyingi ijtimoiy bosqichga mansub bo‘lganligi tufayli “el” so‘zi anglatgan tushunchadan farqlanadi, boshqacha aytganda, bu so‘zlar anglatadigan “predmet” – el va millat so‘zlari ostida tushuniladigan predmet butunlay boshqa-boshqadir, bu predmetlik ijtimoiy-falsafiy kategoriya sifatida ham o‘zaro farqlanadi; 2) “el bo‘lmoq” birikmasida qo‘shilib ketish asosidagi yaqinlik, do‘stlik nazarda tutilishi e’tibordan chetda qolmasligi kerak; 3) arabcha “xalq” so‘zi o‘zlashgandan so‘ng uning qo‘llanish faolligi passivlashgan.

Xullas, “el” leksemasi o‘zbek xalq og‘zaki ijodi namunalari va yozma adabiyotida tarixan urug‘, urug‘lar birlashmasi, qabila, qabilalar ittifoqi, ma’muriy birlik, imperiya (derjava), saltanat, davlat, hokimiyat, o‘rda, qarorgoh, devon (davlat – hokimiyat devoni), devon va maxkama arboblari, askar, lashkar hamda qishloq ma’nolarini ifoda etgan.

Shundan kelib chiqib, lug‘at maqolasida el so‘zining quyidagi ma’nolari ham ko‘rsatilishi maqsadga muvofiqdir: **1. URUG‘.** Dono kishi o‘z elidan adashmas. “Avazxonning arazi”. **2. URUG‘LAR BIRLASHMASI.** Qadim o‘tgan zamonda o‘n olti urug‘ Qo‘ng‘irot elida Dobonbiy degan o‘tdi. Alpomish. **3. MA’MURIY BIRLIK.** Bizlar o‘n olti urug‘ Qo‘ng‘irotning boyi ham, shohi ham bo‘lsak. Alpomish. **4. DAVLAT, HOKIMIYAT.** Ikki narsa el uchun mustahkam bog‘ (ich) dir, biri – hushyorlik, biri – siyosat (bular) elning asosidir. Siyosat bilan beg el tuzadi va nizom o‘rnatadi. **5. ASKAR, LASHKAR, QO‘SHIN.** Va podshoh necha qatla qolin el yuborib, daf‘ qila olmadi. Alisher Navoiy. Bizga ko‘makka kelgan mo‘g‘ul lashkarlarining urushga toqatlari yo‘q edi. Urushmoqlikni qo‘yib, o‘zimizning elniyoq talab, otdan tushirishga kirishdilar... Bizning elni sarosimaga soldilar. Bobur “Boburnoma”. **6. DAVLAT DEVONI, MAHKAMASI ;** devon arboblari

– Bir kun Iskandar bu oyin ayladi,

Elchilikka o‘zni ta‘yin ayladi.

Dedi elga budur Iskandar so‘zi,

Turfa bukim erdi Iskandar o‘zi.

Alisher Navoiy

7. **QISHLOQ, QO‘RG‘ON, UY.** Bir kuni “askar chiqadi vahimasida butun qishloq chuvillab, toqqa chiqib ketdi. Kun bo‘yi tog‘larda izg‘ib yurib, qorong‘u tushganda, elga qaytdi.” Parda Tursun, “O‘qituvchi”.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1. Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati. To‘rt tomlik. Uchinchi tom. – Toshkent: “Fan”, 1984.
2. Gumilyov L.N. Qadimgi turklar – Toshkent: “Fan”, 2007.
3. Древнетюркский словарь – Л.: “Наука”, 1969.
4. Малов С.Е. Памятники древнетюркской письменности. М-Л.:1951.
5. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Ikki tomli. II tom. –M.: “Rus tili”, 1981.
6. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 5 jildli. 5-jild – Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”, 2008.
7. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 6 jildli 2- jild – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023.
8. Sharafutdinova N. THE WORDS GOD AND BLUE (KO‘K) ARE THEONYMS, THE WORDS GOD AND BLUE (KO‘ K) ARE THEONYMS, Vol-7-Issue Q2- 2022.
9. Sharafutdinova N. Mythology - ancient man's fiction. EPRA International Journal of Multidisciplinary Research (IJMR) - Peer Reviewed Journal Volume: 7 | Issue: 5 May 2021.
10. X.Шарафиддинов, Н.Шарафиддинова. Некоторые рассуждения о лексеме “эл” и его семантической структуре. Билим ве эгитим: проблемлер, гўзумлер, везифелер. – Анталя, 2016;
11. Шарафиддинов Х., Шарафутдинова Н.Х. “Бабур-наме” как энциклопедическое произведение. Интеллектуальное наследие Захириддина Мухаммада Бабура и современност. – Москва, 2020.
12. Avazxonning arazi. Kitob: “Gulixiromon”. “Toshkent” badiiy adabiyot nashriyoti, 1965.
13. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. 20 tomlik. 12-tom. – Toshkent: “Fan”, 1996.
14. Alpomish. – Toshkent: O‘zFA nashriyoti, 1958.
15. Asqad Muxtor. Tanlangan asarlar. “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. – Toshkent: 2021.
16. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. – Toshkent: “O‘qituvchi”, 2012.
17. Parda Tursun. O‘qituvchi. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti, 1972.
18. Yusuf va Ahmad. Doston. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti, 1987.
19. Yusuf Xos Hojib. Qudadg‘u bilig. – Toshkent: “Fan”, 1972.
20. Qosimbekov T. Singan qilich. – Toshkent: “O‘qituvchi”, 2012.